



**NAMANGAN VILOYATI XALQ TA'DIMI
BOSHQARMASI
XALQ TA'LIMI BO'LIMI**

27-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABINING

MATEMATIKA FANI O'QITUVCHISI

IBRAGIMOVA MAHFUZANING

BIR SOATLI

DARS ISHLANMASI



KOSONSOY

MAVZU: O'nli kasrlarni o'nli kasrga bo'lish

Ta'limiy maqsad: Misol masalalarni yechish orqali DTS asosida ta'lim berish. O'quvchilarni og'zaki va yozmanutqini, ikrlash qobiliyatini o'stirish. .

Tarbiyaviy maqsad: Vatanparvarli ruhida komil insonni tarbiyalash. Ahloqiy , estetik, nafosat tarbiyasi , milliy g'oyasi o'uvchilar qalbiga singdirib borish kasbga yo'naltirish berish.

Rivojlabntiruvchi maqsad: Ko'rgazmali qurollar va tarqatmalar ,test usullaridan foydalanib og'zaki va fikrlash oqbiliyatini oshirish.

Dars uslbi: Noan'anaviy,savol-javob, musobaqa.

Dars jihozi: Kodoskop, doira magnitafon, mo'jizalar maydoni, doska, sirli sandiqcha, kartochnka, test, darslik.

Darsning borishi:

- 1.Tashkiliy qism
- 2.O'tilgan mavzularni mustahkamlash.
3. O'quvchilar bilan "Oltin toj "
sohibini aniqlashda guruhlarda
ta'limiy o'yinlar bajarish.

4. Dam olish daqiasi.
5. Yangi mavzuni bayoni.
6. Ta'limiy o'yinlar.
7. Mavzuni mustahkamlash.
- 8 O'quvchilarni rag'batlantirish va vazifa berish.

O'qituvchi :

Siz kelajakda qaysi kasb egasi
bo'lishni orzu qilasiz?

O'quvchilar:

O'sib-osib yildan yil,
O'n yettiga to'laman
Kasblar juda xilma-xil,
Men-chi men kim bo'laman?

Alimardon :

IIB xobimi bo'lmoqchiman

Navro'z:

Muhandis bo'lmoqchiman

Gulnoza :

Shifokor bo'lmoqchiman

Maftuna:

O'qituvchi bo'lmoqchiman

O'qituvchi

Demak bugungi darsimizni men bilan birgalikda
yosh o'qituvchi Maftuna olib boradi.

Maftuna savoli:

- Bolalar biz qaysi vatanda yashaymiz?
- Bolalar javobi: Biz o O'zbekistonda yashaymiz
- 1-o'quvchi: Dong'il safarga chiqdi

Endi hur O'zbekiston

Kingadir oyoq osti

Kingadir u osmon bo'ldi

Shukrkim o'z- o'zini tanidi keksa jahon,

Ya'ni o'bek dvlati jumlai jahon bo'ldi.

2- o'quvchi: O'zbekiston Prezidenti kim?

-O'zbekiston prezidenti I. A.Karimov.

Mustaqillik farzandimiz,

Hur vatan dilbandimiz,

Humo qushi hur qushimiz
Omon bo'ling yurtboshimiz.
Yangi hayot qurishda ,
Haq yo'lida yurishda
El uchun kuyib yonishda
Omon bo'ling yurtboshimiz..

3-o'quvchi: Tarix sanalari tilga kirsin?

Javob; 1 sentabr-"Mustaqillik kuni",1 oktabr
"O'qituvchilar kuni", 21 oktabr " Til bayrami" 8 dekabr
"Konstitutsiya kuni", 1-yanvar "yangi yil bayrami",8
mart " Xotin – qizlar bayrami" , 21 mart "Navruz
bayrami" 9 may " Xotira va qadirlash kunlarga"
bag'ishlab sh'erlar aytiladi.

4-o'quvchi: Milliy g'oya bizning g'oya

«Ilm – ma`rifatda qiziqishi sust millatning kelajagi ham
bo'lmaydi»

I.Karimov.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining"Milliy goya
targiboti va ma'naviy- ma'rifiy ishlar samaradorligini

oshirish to'grisidagi 451-sonli qarori 2006 yil 25 avgustda qabiul qilindi.

Vatan nima?

Insonning kindik qoni to'kilgan muqaddas zamin.

Ajdodlardan avlodlarga qoladigan eng buyuk, bebaho meros, eng aziz xotira. Vatan ota bobolarimizning xoki poylari joy bo'lgan, vaqti soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamin.

Qarorning asosiy maqsadi nima?

Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy – ma'rifiy samaradorligini ularning hayotiyligi vat ta'sirchanligini yanada oshirish.

G'oya nima? Inson tafakkurining mahsuli bo'lgan, ishtimoiy harakterga ega, bilimlar tizimi.

Masala. Fermer xo'jaligi 20,5 ga yerdan jami 70,52 t paxta hosili oldi. Xo'jalik bir hektardan qancha hosil olgan?

Yechish:

Masalani hal qilish uchun $70,52 : 20,5$ bo'linmani topish kerak. Bo'luvchi 20,5 ni 10 ga ko'paytirib, $20,5 \cdot 10 = 205$ natural sonni hosil qilamiz. U holda bo'linma o'nli kasrni natural songa bo'lish qoidasiga ko'ra topiladi. Ammo natija o'zgarmasligi uchun bo'linuvchi ham 10 ga ko'paytirilishi lozim, chunki sonlarni bo'lish xossasiga muvofiq bo'linuvchi va bo'luvchi bir xil son marta orttirilsa yoki kamaytirilsa, bo'linma o'zgarmaydi. Shunday qilib.

$$70,52 : 20,5 = (70,52 \cdot 10) : (20,5 \cdot 10) = 705,2 : 205 = 3,44(t)$$

Javob: $3,44t = 34,4sr$.

1 - misol. Bo'linmani toping: $2,7 : 0,1$.

$$2,7 : 0,1 = 2,7 : \frac{1}{10} = 2,7 \cdot \frac{10}{1} = 27.$$

Bu misoldan shunday xulosaga kelamiz:

2 - misol. Ko'paytmani toping: $1,6 \cdot 0,5$.

$$1,6 \cdot 0,5 = 1,6 \cdot \frac{1}{2} = 0,8$$

Shunga o'xshash:

$$1,6 \cdot 0,25 = 1,6 \cdot \frac{1}{4} = 0,4; \quad 1,6 \cdot 0,125 = 1,6 \cdot \frac{1}{8} = 0,2.$$

Nazorat savollari:

1. O'nli kasrni o'nli kasrga bo'lish qoidasini tushuntiring.

2. O'nli kasrlarni 0,1 ga; 0,01 ga; 0,001 ga; ... bo'lish qanday bajariladi?

3. Sonni 0,5 ga; 0,25 ga; 0,125 ga ko'paytirish uchun nima qilish kerak?

Mustaqil yechish uchun masala va mashqlar.

1. (Og'zaki.) Javobni ayting:

1) $2,4 : 0,1$; 3) $1,25 : 0,1$;

Javob: 24; *Javob:* 12,5;

2) $0,01 : 0,01$; 4) $24 \cdot 0,5$;

Javob: 1; *Javob:* 12.

2. Bo'lishni bajaring va natijaning to'g'riligini ikki usulda tekshiring:

1) $25,6 : 1,6$; 3) $2 : 0,025$;

Javob: 16; *Javob:* 80

2) $3,25 : 2,5$; 4) $6,432 : 0,32$.

Javob: 1,3; *Javob:* 20,1.

3. Tenglamani yeching:

1) $x : 5,4 = 3,5$; 3) $2,56x = 20,48$;

Javob: $x = 18,9$; *Javob:* 8;

$$2) 7,8 : x = 2,6;$$

$$4) 0,001x = 1,9;$$

Javob: $x=3$;

Javob: 1900;

$$5) (7,8 : 1,3)x = 3,9 : 1,3; \quad 6) x:(6,3 : 2,1) = 1,21 : 1,1.$$

Javob: 0,5;

Javob: 1,1.

4. Poyezd 3,5 soatda 212,8 km yo'l yurdi. Uning tezligini toping. Shunday tezlik bilan poyezd 9,4 soatda necha kilometr yo'l yuradi?

Javob: 60,8 km/soat.

5. Uchta sonning yig'indisi 13,875 ga teng. Agar ularning birida: vergul o'ng tomonga bir xona surilsa, ikkinchi son; ikki xona surilsa, uchinchi son hosil bo'ladi. Shu sonlarni toping.

Javob: 0,125; 1,25; 12,5.

6. Jadvalni to'ldiring

x	8,4			2,4	20,25			15,3
y	2,8	3,6					2,5	0,9
$x \cdot y$		32,4	8,64		2,88	30		
$x : y$			2,1	4,5		7,5	1,4	

x	8,4	9		2,4	20,25			15,3
y	2,8	3,6					2,5	0,9
$x \cdot y$	23,52	32,4	8,64		2,88	30		
$x : y$	3	2,5	2,1	4,5		7,5	1,4	

7. 1) O'rik quritilganda undan (massasi bo'yicha) 0,35 qism turshak tushadi. 300 kg o'rikdan qancha turshak olish mumkin?

2) 70 kg turshak olish uchun necha kilogramm o'rik kerak bo'ladi?

Javob: 105 kg;

8. Qaldirg'ochning tezligi 96 km/soat ga teng. Chug'urchiqning tezligi qaldir-g'och tezligining 0,75 qismini, qirg'iyning tezligi esa qaldirg'och tezligining 0,7 qismini tashkil qiladi. Chug'urchiq 1 minutda necha metrga uchishi mumkin? *Javob:* 1200 m;

9. Hisoblang:

$$1) (30 : 1,2) \cdot (5,6 : 1,4) + (12,5 : 2,5) \cdot (3,6 : 2,4);$$

Javob: 107.5;

$$2) (32 : 1,6) \cdot (13 : 5,2) - (7,2 : 3,6) \cdot (39,52 : 15,2).$$

Javob: 44,8.

10. 1 sm³ oltinning massasi 19,3 grammga, 1 sm³ platinaning massasi esa 21,5 grammga teng. Qirrasining uzunligi 2,1 sm bo'lgan oltin kub massasi bilan

qirrasining uzunligi 2 sm bo'lgan platina kub massasini taqqoslang. Qaysinisining massasi ko'p? Qanchaga ko'p?

Javob: Oltin kubning massasi 6,7373 g ko'p.

- 11.** Aravaning oldingi g'ildiragi 48 marta aylangan masofada keyingi g'ildirak 32 marta aylanadi. Oldingi g'ildirak aylanasing uzunligi 2,2 m ga teng bo'lsa, keyingi g'ildirak aylanasi uzunligini toping.

Javob: 3,3 m.

- 12.** Bo'lishni bajaring va natijaning to'g'riligini ikki usulda tekshiring:

1) $12,36 : 2,4;$

3) $64,32 : 3,2;$

Javob: 5,15;

Javob: 20,1;

2) $4 : 0,016;$

4) $20,25 : 13,5.$

Javob: 250;

Javob: 1,5.

- 13.** Tenglamani yeching:

1) $15,6 : x = 5,2;$

4) $0,001x = 4,65;$

Javob: 3;

Javob: 4650;

2) $6,75 : x = 2,5;$

5) $0,375 : x = 1,5;$

Javob: 2,7;

Javob: 0,25;

3) $5,12x = 10,24;$

6) $1,96 : x = 0,14.$

Javob: 2;

Javob: 14;

14. Mashina 3,25 soatda 228,8 km yo'l yurdi. Uning tezligini toping. Shunday tezlik bilan u 4,5 soatda necha kilometr yo'l yuradi? *Javob: 70,4 km/soat;*

15. Hisoblang:

1) $(22,83 + 73,41) : 4,8 + 24,48 : (65,41 - 63,01);$

Javob: 30,25;

2) $(24 : 1,2) \cdot (65 : 1,3) - (7,5 : 2,5) \cdot (2,5 : 0,1).$

Javob: 925.

16. Jadvalni to'ldiring:

a (sm)	3,8	4,8		8,5		4,5
h (sm)	2,55		2,25	6,4	7,2	
$s=0,5a \cdot h$ (sm ²)		19,2	20,25		50,52	36,54

Javob:

a (sm)	3,8	4,8	18	8,5		4,5
h (sm)	2,55	8	2,25	6,4	7,2	16,24
$s=0,5a \cdot h$ (sm ²)	4,845	19,2	20,25	27,2	50,52	36,54

17. 1) Uzum quritilganda undan (massasi bo'yicha) 0,25 qism mayiz tushadi. 160 kg uzumdan qancha mayiz olish mumkin?

2) 30 kg mayiz olish uchun necha kilogramm uzum kerak bo'ladi? *Javob: 1) 40 kg; 2) 120 kg.*

KADASKOPDAGI test savollariga guruh a'zolari jajob berishdi.

Rag'batlantirish , baholash , tahlil

Mana o'quvchilar darsimiz ham nihoyasiga yetib bormoqda. **“Oltin toj ”** o'yinini o'tkazamiz Unda beriladigan savollar bugungi darsga oid bo'ladi.

Qatnashchilarni aniqlash uchun **“Sirli xalta”** dan foydalanamiz. Bir o'quvchi chiqib ko'zini yumib xaltachadan 3 ta son olib beradi. O'sha raqamdagi o'quvchi chiqadi. (Guruhlardagi o'quvchilar raqamlab qoyiladi)

“ BILIMDONLAR ”, “ ZUKKOLAR ” *guruhlar to'plagan ballarni Maftuna elon qiladi va g'olib bo'lgan guruh rag'batlantiriladi. Darsda ishtirok etgan o'quvchilar baholari elon qilinadi.*

Dars o'qituvchi tomonidan yakunlanadi.

Uyga vazifa .53–54– misollar tushuntirilib beriladi va bajarib kelish topshiriladi.

